

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARINING ANALITIK YUKINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI KPI VA TAYANCH INDIKATORLAR TIZIMINI MODELLASHTIRISH

Xaydarov Rustambek Yulchibayevich¹, Tanyariqova Dilafruz G'aybillayevna²

¹ ISFT "Iqtisodiyot va kompyuter injiniringi" kafedrası v.b. dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

² MTTDMQTMOI tadqiqotchisi

DOI: 10.61587/mmit.tiue.uz.v1i1.293

Annotatsiya. Tadqiqot maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv faoliyatidagi ortiqcha analitik yuklarni optimallashtirish muammosiga bag'ishlangan. Ishda amaldagi axborot oqimlari va hisobotlar tizimi tahlil qilinib, ularning boshqaruv sifati hamda direktorlarning professional so'nish darajasiga salbiy ta'siri empirik jihatdan asoslangan. P.Druker va Kaplan-Norton konseptual yondashuvlari integratsiyasi asosida, maktabgacha ta'lim muassasalarining o'ziga xosligiga moslashtirilgan minimal va unumdor tayanch indikatorlar modeli ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ta'lim menejmenti, analitik yuklama, KPI, tayanch indikatorlar, modellashtirish, tejamkor boshqaruv, professional so'nish, boshqaruv samaradorligi.

MODELING A SYSTEM OF KPI AND KEY INDICATORS FOR OPTIMIZING THE ANALYTICAL LOAD OF PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION MANAGERS

Rustambek Yulchibayevich Xaydarov¹, Dilafruz Gaybillayevna Tanyariqova²

¹ Acting Associate Professor, PhD, Department of Economics and Computer Engineering, ISFT

² Researcher, MTTDMQTMOI

Abstract. The research is devoted to the problem of optimizing the excessive analytical overload in the managerial activity of preschool education organization directors. The study analyzes the current information flows and reporting systems, empirically substantiating their negative impact on management quality and the professional burnout level of directors. Based on the integration of P. Drucker's and Kaplan-Norton's conceptual approaches, a minimal and productive model of Key Performance Indicators adapted to the specifics of preschool education was developed.

Keywords: preschool education, educational management, analytical overload, KPI, key indicators, modeling, lean management, professional burnout, management efficiency.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-152-son Farmonida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, sohada faoliyat yuritayotgan kadrlar malakasini muntazam rivojlantirish [5] zaruriyati qayd etilgan. Ayniqsa, boshqaruv vertikalini takomillashtirish va bu jarayonda zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimlarini transformatsiya qilish va raqamlashtirish jarayonlari boshqaruv subyektlari zimmasiga yuklanadigan axborot oqimining keskin ortishiga olib keldi. Dunyo miqyosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) rahbarlarining faoliyati ko'p funktsiyali xarakter kasb etib, ulardan nafaqat pedagogik, balki chuqur iqtisodiy, moliyaviy va statistik tahlillarni amalga oshirish talab etilmoqda [2]. Biroq, boshqaruv amaliyotida yuzaga kelayotgan "Analitik yuklama" direktorlarning strategik qarorlar qabul qilish hamda ta'lim-tarbiya sifatiga ajratadigan vaqtini cheklab qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, bolalar qamrovini oshirish va boshqaruv mexanizmlarini raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarda ta'lim menejmentini takomillashtirish, byurokrtiyani kamaytirish va boshqaruv xodimlarining mehnat unumdorligini oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Biroq, amaliyotda MTT direktorlarining boshqaruv faoliyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, amaldagi hisobotlar tizimi, ichki va tashqi reyting ko'rsatkichlarining haddan tashqari ko'pligi va tarqoqligi rahbarlarning tahliliy yuklamasini optimallashtirish imkonini bermayapti [4]. Tizimdagi asosiy ziddiyat — zamonaviy MTT rahbaridan talab etilayotgan yuqori darajadagi boshqaruv samaradorligi va uning real vaqt hamda tahliliy imkoniyatlari cheklanganligi o'rtasidagi nomutanosiblikdir.

MTT rahbarlarining boshqaruv faoliyatidagi analitik yuklamani optimallashtirish, ortiqcha axborot bosimini filtrlash hamda muassasa samaradorligini baholashning maktabgacha ta'lim o'ziga xosligiga moslashtirilgan tizimli KPI va tayanch indikatorlar modelini hamda uni amaliyotga joriy etish texnologiyasini ilmiy-metodik jihatdan asoslash va rivojlantirishdir.

Ta'lim menejmenti va boshqaruv subyektlarining tahliliy faoliyatini baholash sohasida xalqaro miqyosda tan olingan ikki yirik konseptual yondashuv mavjud: Piter Drukerning "Maqsadli boshqaruv" konsepsiyasi hamda Robert Kaplan va Devid Nortonning "Balanslashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi" strategik boshqaruv modeli.

P.Druker yondashuvining mantiqiy asosi — tashkilot faoliyatining samaradorligi uning har bir bo'g'inida aniq, o'lchanadigan va erishish mumkin bo'lgan maqsadlarning belgilanishi hamda resurslarning ushbu maqsadlarga safarbar etilishi bilan baholanadi. Ta'lim muassasasi rahbari nuqtayi nazaridan, MBO analitik yuklamani aniq dekompozitsiya qilish (Katta maqsadlarni mayda vazifalarga bo'lish) orqali boshqaruv tahlilini muayyan natijaga yo'naltirishni ko'zda tutadi.

Kaplan va Norton yondashuvida esa tashkilot faoliyatini faqatgina yakuniy natijalar yoki an'anaviy miqdoriy ko'rsatkichlar orqali emas, balki uni ta'minlovchi o'zaro bog'liq to'rtta perspektiva (Moliya, mijozlar va iste'molchilar, ichki biznes-jarayonlar, xodimlarning o'sishi va ta'limi) balansi orqali baholash ilgari suriladi. MTT kontekstida bu model rahbarning analitik e'tiborini nafaqat "yakuniy hisobot"ga, balki ta'lim sifati va kadrlar salohiyatini ta'minlovchi tizimli jarayonlar tahliliga qaratadi.

Ushbu ikki yondashuvning o'xshash jihati shundaki, ular tashkilot faoliyatini elementar, xaotik boshqarishdan voz kechib, uni strategik rejalashtirishga yo'naltiradi va boshqaruv subyektlarining analitik faoliyati subyektiv baholashga emas, balki aniq o'lchanadigan tayanch mezonlar va empirik indikatorlarga asoslanadi. Farqli jihati esa, P. Drukerning MBO tizimida maqsadlar ko'pincha lokal yoki qisqa muddatli xarakterga ega bo'lib, ular orasidagi o'zaro tizimli bog'liqlik kuchli aks etmaydi. Kaplan va Nortonning BSC modelida esa bir ko'rsatkichning o'zgarishi (Masalan, tarbiyachilar malakasining oshishi) ikkinchi ko'rsatkichga qanday ta'sir ko'rsatishi sabab-oqibat zanjiri orqali tahlil qilinadi.

MTT rahbarlarining analitik yuklamasini optimallashtirish va amaliyotga yo'naltirilgan KPI modelini ishlab chiqish maqsadida o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan zamonaviy metodlar majmuasidan foydalanish taklif etiladi:

1. Tizimli-strukturaviy tahlil va modellashtirish metodi. MTT boshqaruvi o'z ichiga metodik, tarbiyaviy, tashkiliy, moliyaviy va xo'jalik jarayonlarini qamrab olgan murakkab pedagogik tizimdir. Ushbu metod orqali amaldagi yuzlab tarqoq indikatorlar "filtrlanib", maktabgacha ta'limning o'ziga xosligini aks ettiruvchi, bir-birini inkor etmaydigan, aksincha to'ldiruvchi minimal va unumdor tarkibiy-funksional KPI modeli loyihalashtirildi.
2. Vaqt xronometraji va taym-menejment auditi. Analitik yuklama — subyektiv tushuncha emas, u aniq o'lchanadigan vaqt va intellektual resurs sarfidir. Mazkur metod yordamida

MTT rahbarlarining kunlik, haftalik va oylik ish faoliyatida axborotlarni yig'ish, ularni qayta ishlash, hisobotlar tuzish va tahlil qilishga sarflaydigan real vaqt ko'rsatkichlari empirik jihatdan o'lchandi.

3. Pedagogik eksperiment metodi. KPI va tayanch indikatorlar tizimining rahbar analitik yukini real kamaytira olishi va boshqaruv unumdorligini oshirishini isbotlash uchun nazorat va tajriba guruhlari shakllantirilib, ishlab chiqilgan optimallashtirilgan KPI modeli MTT amaliyotiga joriy etildi va real pedagogik muhitda tekshirildi.
4. Matematik-statistik tahlil metodlari. Tajriba-sinov ishlaridan oldingi va kingi ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqning tasodifiy emasligini, balki aynan biz taklif etayotgan KPI modeli va optimallashtirish texnologiyasining natijasi ekanligini matematik jihatdan isbotlash va gipotezalarni tekshirish maqsadida qo'llanildi.

Xulasa qilib aytish mumkinki zamonaviy ta'lim menejmenti va raqamlashtirish sharoitida MTT direktorlari faoliyatida yuzaga kelayotgan "Analitik yuklama" tushunchasining pedagogik mohiyati ochib berildi. P.Drukerning "Maqsadli boshqaruv" va Kaplan-Nortonning "Balanslashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi" modellarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'lim tizimidagi amaldagi baholash ko'rsatkichlari tarqoq va ko'p faktorli xarakterga ega. Rahbar faoliyatini samarali tashkil etish uchun ushbu modellarning sinteziga asoslangan, maktabgacha ta'lim xususiyatlarini aks ettiruvchi minimal va unumdor indikatorlar tizimini yaratish zaruriyati hozirgi davir talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23- sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" PF-152-sonli Farmoni.
6. Inatov, A. N. Ta'lim muassasalarini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari. Toshkent: Fan va texnologiyalar. 2021-y.
7. Hasanova, G. K. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida menejment va marketing asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Tafakkur. 2022-y.
8. Yo'ldoshev, J. G., & Usmonov, S. A. Zamonaviy ta'lim menejmenti: muammo va rivojlanish tendensiyalari. Ilmiy-metodik qo'llanma. Toshkent. 2020-y.